



## Xorazm viloyatida fan va innovatsiya


2024-yil uchun

- I. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni
- II. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarini bajargan xodimlar soni
- III. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalariga xarajatlar
- IV. Joriy qilingan innovatsiyalar soni
- V. Yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi
- VI. Innovatsiyalarga xarajatlar (texnologik, marketing va tashkiliy)
- IX. Uslubiy ma'lumotlar

### I. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni

Xorazm viloyatida 2024-yilda ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlarning umumiyligi 9 tani tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 2 taga yoki **22,2 % ga** kamaygan.

Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni  
(tegishli yil oxiriga, birlik)



2024-yilda ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlarning eng ko'p qismi Urganch shahrida **3 tani (jamiga nisbatan ulushi 33,3 %)**, Xiva shahri **2 ta (22,2 %)** va Urganch tumani **2 ta (22,2 %)** tashkil etgan. Shuningdek, Gurlan tumanida **1 ta (11,1 %)** va Xonqa tumanida **1 ta (11,1 %)** tashkilot qayd etilgan, qolgan tumanlarda esa ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar qayd etilmagan.


Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni  
hududlar kesimida taqsimlanishi  
(2024-yil oxiriga, birlik)

|                        | Umumiy soni | Jamiga nisbatan ulushi, % da |
|------------------------|-------------|------------------------------|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>9</b>    | <b>100,0</b>                 |
| Urganch sh.            | 3           | 33,3                         |
| Xiva sh.               | 2           | 22,2                         |
| <i>tumanlar:</i>       |             |                              |
| Bog'ot                 | -           | -                            |
| Gurlan                 | 1           | 11,1                         |
| Qo'shko'pir            | -           | -                            |
| Urganch                | 2           | 22,2                         |
| Hazorasp               | -           | -                            |
| Tuproqqa'l'a           | -           | -                            |
| Xonqa                  | 1           | 11,1                         |
| Xiva                   | -           | -                            |
| Shovot                 | -           | -                            |
| Yangiariq              | -           | -                            |
| Yangibozor             | -           | -                            |

## II. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan xodimlar soni

Xorazm viloyatida 2024-yilda ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlanmalarni bajargan xodimlarning umumiy soni **2 256 tani** tashkil etib, 2023-yilga nisbatan **228 taga** yoki **11,2 % ga** oshgan.

Ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlanmalarni  
bajargan xodimlarning soni (tegishli yil oxiriga, birlik)





Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan xodimlar sonini  
hududlar kesimida taqsimlanishi  
(2024-yil oxiriga, birlik)


|                        | Jami         | jamiga nisbatan ulushi, % da |
|------------------------|--------------|------------------------------|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>2 256</b> | <b>100,0</b>                 |
| Urganch sh.            | 1 954        | 86,6                         |
| Xiva sh.               | 268          | 11,9                         |
| <i>tumanlar:</i>       |              |                              |
| Bog'ot                 | -            | -                            |
| Gurlan                 | 4            | 0,2                          |
| Qo'shko'pir            | -            | -                            |
| Urganch                | 16           | 0,7                          |
| Hazorasp               | -            | -                            |
| Tuproqqa'l'a           | -            | -                            |
| Xonqa                  | 14           | 0,6                          |
| Xiva                   | -            | -                            |
| Shovot                 | -            | -                            |
| Yangiariq              | -            | -                            |
| Yangibozor             | -            | -                            |

2024-yilda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan xodimlarning nisbatan eng ko'p qismi Urganch shahri **1 954** ta (**jamiga nisbatan ulushi 86,6 %**) va Xiva shahrida **268** ta (**11,9 %**) tashkil etgan. Shuningdek, Gurlan tumanida **4** ta (**0,2 %**), Urganch tumanida **16** ta (**0,7 %**) va Xonqa tumanida **14** ta (**0,6 %**) xodim qayd etilgan, qolgan tumanlarda esa ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlanmalarni bajargan xodimlar qayd etilmagan.

### III. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlari

Xorazm viloyatida 2024-yilda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar qiymati hajmi **10,6 mld. so'mni** tashkil etib, 2023-yilga nisbatan **3,5 mld. so'mga**, yoki **49,3 %** ga oshgan.

Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar qiymati  
(tegishli yil oxiriga, mld.so'm)





2024- yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlamnalariga xarajatlarning eng ko'p qismi Xiva shahrida – **37,7 % (4,0 mlrd.so'm)**, Urganch shahrida – **28,3 % (3,0 mlrd.so'm)** va Urganch tumanida – **20,8 % (2,2 mlrd.so'm)** bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan kam ko'satkichlar esa Gurlan tumani – **10,4 % (1,1 mlrd.so'm)** hamda Xonqa tumanida – **2,8 % (0,3 mlrd.so'm)** qayd etilgan.

**Ilmiy tadqiqot va ishlamalarga xarajatlarning  
hududlar kesimida taqsimlanishi  
(2024-yil oxiriga, mlrd. so'mda)**

|                        | Hajmi       | Jamiga nisbatan ulushi, % da |
|------------------------|-------------|------------------------------|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>10,6</b> | <b>100,0</b>                 |
| Urganch sh.            | 3,0         | 28,3                         |
| Xiva sh.               | 4,0         | 37,7                         |
| <i>tumanlar:</i>       |             |                              |
| Bog'ot                 | -           | -                            |
| Gurlan                 | 1,1         | 10,4                         |
| Qo'shko'pir            | -           | -                            |
| Urganch                | 2,2         | 20,8                         |
| Hazorasp               | -           | -                            |
| Tuproqqa'l'a           | -           | -                            |
| Xonqa                  | 0,3         | 2,8                          |
| Xiva                   | -           | -                            |
| Shovot                 | -           | -                            |
| Yangiariq              | -           | -                            |
| Yangibozor             | -           | -                            |

#### IV. Innovatsion faol korxonalar soni

2024-yilda joriy qilingan innovatsiyalar soni **199 tani** tashkil etib, ulardan **198 tasi** texnologik innovatsiyalar, **5 tasi** marketing innovatsiyalar hamda **1 tasi** tashkiliy innovatsiyalarni tashkil qildi.


**Joriy qilingan innovatsiyalarning umumiy soni**  
(tegishli yil oxiriga, birlikda)



## V. Yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi

Xorazm viloyatida 2024- yilda yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi **2 025,2 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2023- yilga nisbatan **734,8 mlrd. so'mnga**, yoki **56,9 % ga** oshgan.

*Yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi, mlrd.so'm*



2024- yilda yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmining eng ko'p qismi Urganch shahrida – **382,4 mlrd.so'm (18,9 %)**, Shovot – **342,6 mlrd.so'm (16,9 %)** va Xiva – **214,4 mlrd.so'm (10,6 %)** tumanlarida kuzatilgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan kam ko'satkichlar esa Qo'shko'pir – **17,9 mlrd.so'm (0,9 %)**, Hazorasp – **20,1 mln.so'm (1,0 %)** hamda Tuproqqa'l'a tumanida – **51,3 mlrd.so'm (2,5 %)** qayd etilgan.

*Yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar  
hajmi hududlar kesimida taqsimlanishi  
(2024-yil oxiriga, mlrd. so'mda)*

|                        | Hajmi          | Jamiga nisbatan ulushi, % da |
|------------------------|----------------|------------------------------|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>2 025,2</b> | <b>100,0</b>                 |
| Urganch sh.            | 382,4          | 18,9                         |
| Xiva sh.               | 202,4          | 10,0                         |
| <i>tumanlar:</i>       |                |                              |
| Bog'ot                 | 95,1           | 4,7                          |
| Gurlan                 | 58,0           | 2,9                          |
| Qo'shko'pir            | 17,9           | 0,9                          |
| Urganch                | 65,6           | 3,2                          |
| Hazorasp               | 20,1           | 1,0                          |
| Tuproqqa'l'a           | 51,3           | 2,5                          |
| Xonqa                  | 105,7          | 5,2                          |
| Xiva                   | 214,4          | 10,6                         |
| Shovot                 | 342,6          | 16,9                         |
| Yangiariq              | 71,4           | 3,5                          |
| Yangibozor             | 398,3          | 19,7                         |



## VI. Innovatsiyalarga xarajatlar (texnologik, marketing va tashkiliy)

2024-yilda innovatsiyalarga xarajatlar **1 349,5 mlrd.so'mni** tashkil etib, 2023-yilga nisbatan **648,6 mlrd. so'mga** yoki **92,5 %** ga oshganligi qayd etildi.

2024-yilda innovatsiyalarga xarajatlarning eng ko'p qismi Urganch shahrida – **43,0 % (579,9 mlrd.so'm)**, Shovot – **22,3 % (301,6 mlrd.so'm)** va Xonqa – **13,6 % (183,2 mlrd.so'm)** tumanlarida kuzatilgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan kam ko'rsatkichlar esa Yangiariq – **0,02 % (0,3 mlrd.so'm)**, Qo'shko'pir – **0,1 % (1,9 mlrd.so'm)** hamda Bog'ot tumanlarida – **0,5 % (6,1 mlrd.so'm)** qayd etilgan.

Innovatsiyalarga xarajatlar hududlar kesimida taqsimlanishi  
(2024-yil oxiriga, mln so'mda)

|                        | Jami xarajatlar | Jamiga nisbatan ulushi, % da |
|------------------------|-----------------|------------------------------|
| <b>Xorazm viloyati</b> | <b>1 349,5</b>  | <b>100,0</b>                 |
| Urganch sh.            | 579,9           | 43,0                         |
| Xiva sh.               | 10,8            | 0,8                          |
| <i>tumanlar:</i>       |                 |                              |
| Bog'ot                 | 6,1             | 0,5                          |
| Gurlan                 | 12,0            | 0,9                          |
| Qo'shko'pir            | 1,9             | 0,1                          |
| Urganch                | 75,7            | 5,6                          |
| Hazorasp               | 7,7             | 0,6                          |
| Tuproqqa'l'a           | 27,2            | 2,0                          |
| Xonqa                  | 183,2           | 13,6                         |
| Xiva                   | 116,9           | 8,7                          |
| Shovot                 | 301,6           | 22,3                         |
| Yangiariq              | 0,3             | 0,02                         |
| Yangibozor             | 26,2            | 1,9                          |

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlasmalarini bajargan tashkilotlar soni.

Bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari hajmi.

Joriy qilingan innovatsiyalar soni.

Korxona va tashkilotlarning innovatsion hajmi.

Korxona va tashkilotlarning innovatsion xarajatlari.



## VII. Uslubiy ma'lumotlar

**Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari (ITTKI)** – bu bilimlarni oshirish maqsadida olib boriladigan va shu bilan birga insoniyat, madaniyat va jamiyat haqidagi bilimlarni oshirishga qaratilgan ijodiy faoliyatdir.

Oliy ta'lidan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

**Ilmiy-tadqiqot xodimlari** – ijodiy faoliyati tizimli ravishda ilmiy bilimlar hajmini oshirishga va ushbu bilimlarni qo'llashning yangi yo'nalishlarini topishga qaratilgan, shuningdek ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq xizmatlar ko'rsatadigan jismoniy shaxslar.

**Innovatsiya** – yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, xizmat, texnologiya yoki tashkiliy yechimning paydo bo'lishi va bozorda ilgari surilishiga olib keladigan ilmiy-texnik faoliyat natijasi hisoblanadi.

**Innovatsiyaning minimal belgisi** – bu korxona amaliyotida mahsulot, jarayon, marketing hamda tashkiliy usullar yangi yoki qisman takomillashtirilgan bo'lishi, ya'ni boshqa korxonalarda aniq bu innovatsiyani ishlatish mumkinligi, lekin ushbu korxona uchun u yangi bo'lishi lozim.

Innovatsiyalarning to't turi mavjud: mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy innovatsiyalar.

Mahsulot va jarayon innovatsiyalari texnologik innovatsiyalar hisoblanadi.

**Mahsulot innovatsiyalari bu** – ma'lum bir korxonada ishlab chiqarishga kiritilgan xususiyatlari yoki foydalanish usullari bo'yicha yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulotlar (tovarlar yoki xizmatlar).

**Jarayon innovatsiyalari** – ishlab chiqarish, logistika va mahsulotni yetkazib berishda texnologik jihatdan yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarni ishlab chiqish va joriy etishni, shu jumladan barcha texnologik jarayonlarga dasturiy ta'minotni joriy etishni o'z ichiga oladi.

**Marketing innovatsiyasi** – yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan marketing usullarini amalga oshirish.

**Tashkiliy innovatsiyalar** – biznes yuritishda, ish joylarini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalarda yangi usullarni joriy etishga qaratilgan.

### Foydali havolalar:

*Innovatsiya sohasida statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy Nizom*

*Innovatsiyalarga oid ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT))*

*Yevropa hamjamiyati statistika byurosining uchinchi tahriri (Yevrostat), "Oslo qo'llanmasi-2018"*

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

**Manzil:** Urganch sh.,  
Al- Xorazmiy ko'chasi, 93  
**E-mail:** xorazmstat@umail.uz  
**Tel.:** (0371)224-65-21